



MUQIMIYNING “TANLANGAN ASARLAR”IDA RAVISHLARNING QO‘LLANISHI

Munisa Shavkatova

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muqimiyning “Tanlangan asarlar”ida qo‘llanilgan ravishlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ravishlarning kelib chiqishi, yasaliş usullari (morfoloqik va sintaktik), hamda ularning semantik xususiyatlari misollar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, eski o‘zbek tiliga oid ravishlarning tarixiy shakllari, o‘zlashma ravishlarning qo‘llanishi va Muqimiy ijodidagi o‘rni tahlil etiladi va adib asarlarida ravishlarning faol va mazmuniy jihatdan muhim vosita ekanligi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ravish, Muqimiy, “Tanlangan asarlar”, morfoloqik usul, sintaktik usul, affiksatsiya, kompozitsiya, qo‘shma ravishlar, o‘zlashma ravishlar, eski o‘zbek tili*

Аннотация: *В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются идиомы, используемые в «Избранных произведениях» Мукими. Работа освещает происхождение идиом, методы их образования (морфологические и синтаксические) и их семантические свойства на примерах. Также анализируются исторические формы идиом в древнеузбекском языке, использование заимствованных идиом и их место в творчестве Мукими. В результате исследования установлено, что идиомы являются активным и значимым инструментом в произведениях писателя.*

Ключевые слова: *наречие, Мукимий, «Избранные произведения», морфологический метод, синтаксический метод, аффиксация, композиция, сложные наречия, ассимиляционные наречия, древнеузбекский язык*

Abstract: *This article analyzes the idioms used in Mukimi's "Selected Works" from a linguistic perspective. The work sheds light on the origin of idioms, their formation methods (morphological and syntactic), and their semantic properties based on examples. It also analyzes the historical forms of idioms in the old Uzbek language, the use of borrowed idioms, and their place in Mukimi's work. As a result of the research, it is determined that idioms are an active and meaningful tool in the writer's works.*

Keywords: *Adverb, Muqimiy, "Selected Works", morphological method, syntactic method, affixation, composition, compound adverbs, assimilation adverbs, old Uzbek language*

Ma'lumki, ravish ham boshqa so‘z turkumlari kabi qadimdan o‘z o‘rniga ega va hozirda ham keng qo‘llaniladi. Bunday holatni Muqimiyning “Tanlangan asarlar”idan kuzatib, tahlilni olib boramiz. Shu vaqtga qadar ravishlar har jihatdan o‘rganilib, tahlil



qilingan, jumladan, T.Asadov “So‘z turkumlari tizimida ravish” monografiyasida ⁴³ va S.Fuzailov “O‘zbek tilida ravishlar” ⁴⁴ asarida ham ravishlar to‘liq yoritib berilgan. Lekin aytib o‘tish joizki, Muqimiyning asarlarida ishtirok etgan ravishlarning alohida o‘rganilganligi hali hanuz ko‘zga tashlanmadi desak, mublag‘aa bo‘lmaydi. Biz asarda qo‘llangan ba‘zi ravishlarni o‘rganib chiqamiz.

Eski o‘zbek tilida ham ravishlar ikki yo‘l bilan yasalgan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya). Eski o‘zbek tilida tub so‘z sifatida tasavvur qilingan ayrim ravishlar aslida qadimgi turkiy tilda yasama ravish bo‘lgan. Masalan, emdi//emti (hozirgi o‘zbek tilida endi) ravishi tarixan "yana", "va" kabi ma'nolarni ifodalovchi em so‘ziga -di (-ti) qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. Dastlab bu ravishning emti shakli keng qo‘llanilgan, emdi varianti esa keyingi davr mahsulidir. Bu ravish Muqimiy “Tanlangan asarlar”ida faol qo‘llangan:

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar. (11-b.)
Garchiki men olimu shayxi zamon,
Qirqingiza emdi beray bir qozon. (12-b.)
Topib mardikorini – “seychas yuring,
Pojalista, - der erdi, - emdi turing” (16-b.)

Eski o‘zbek tiliga eron tillaridan va arab tilidan o‘zlashtirilgan ravishlar ham mavjud. Bular: doimo, nogoh, ohista, hargiz, avval kabilardir. Bularning ichidan Muqimiy asarida doimo ravishi ko‘p qo‘llanilgan:

Surmalar tortib qachon ko‘rsang ko‘ziga, doimo
O‘zga beray, qo‘lida oyina, oro, bachchag‘ar (33-b.)
Turfa qirchang‘iyu sang‘iyu, xirayu badkordur,
Fikri-zikri doimo andeshasi ozordur. (41-b.)
Adib doim ravishidan ham barakali foydalanganini ko‘ramiz. Masalan:
Ikki qo‘l doim yaqoda sharridin istab panoh,
Mingan odamni qilur subhini shom, o‘lsun bu ot. (45-b.)
Aylantirib boshingni, dil behuzur doim,
Mindim netay safarda nochor, aroba ko‘rsin. (46-b.) va qator shu kabi misolarni

keltirishimiz mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda juda ko‘p qo‘llaniladigan avval ravishi o‘zlashma ravishlardan biri bo‘lib, Muqimiy asarida ham keng qo‘llanilgan. Masalan:

Xanjari nozingla avval siynasi afgor o‘la,
Tarki xobi rohat aylab kechalar bedor o‘la. (146-b.)

⁴³ Асадов Т. Со ъз туркумлари тизимида raviш. - Тошкент: Мухаррир, 2010. 125-б.

⁴⁴ Фузайлов С. Ўзбек тилида raviшлар. - Тошкент: Фан, 1953. 20-б.



Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ravishlarning ikki usul bilan yasaladi. -cha, -gacha, -g'acha, -tek, -dek, -la kabi bir qancha affikslar orqali morfologik usulda ravish yasaladi.

Xalojo edi, tuynukidin ani –

Ketib og'zicha, botdi ul beshumor (27-b.)

Qamchini zarbi bilan yo'rtarda og'zicha ketib,

Mastlar uchgan kabi ul yerda hushidin ketar (50-b.) ushbu misollarda -cha affiksi orqali ravish yasalganini kuzatish mumkin.

-la affiksi bilan yasalgan ravishlar deyarli Muqumiyning asarida uchramadi. Bu affiks payt ma'nosini ifodalab keluvchi so'zlarga, asosan, tun, tan kabi otlarga qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi.

Kompozitsiya yo'li bilan ravish yasalishi. Bu guruhni qo'shma va juft ravishlar tashkil etadi. Qo'shma ravishlar. Eski o'zbek tilida ham qo'shma ravishlar ning quyidagi turlari amalda bo'lgan: Bir so'ziga payt, makon va shunga o'xshash ma'nolarni ifodalovchi so'zlarning qo'shilishi bilan payt, o'rin yoki holat ma'nosidagi qo'shma ravishlar hosil bo'ladi:

Erta oqshom pushtlab, bir lahza yemsiz qo'ymadim,

Qancha boqsang silga o'xshab, rangi chiqmas bilmadim (41-b.)

Oshno begonalarga, bir umr xush-xush nigoh,

Oshnolarga g'araz nooshnodur ko'zlaring (97-b.)

Qo'limdin ixtiyorim ketti bir dam, qolmadi orom,

Parilardek qachonkim fe'lu atvor aylading sen ham. (58-b.)

So'rmangiz bir lahza taskinimdin, e ahboblar,

Naylayin siymob yanglig' beqaror etdi meni. (102-b.)

Insofa kelur bir kun,

Haqqiga duo aylang (160-b.)

2. Har belgilash olmoshiga payt yoki makon bildiruvchi so'zlar qo'shilib, payt yoki o'rin ma'nosidagi qo'shma ravishlar hosil bo'ladi:

Ul zamonikim, yiroq vaslingdin o'ldim, to bu dam,

Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman (80-b.)

Dedi: - har kuni bersang o'n so'm ham,

Borilmaydi, qo'y zovutini, xo'jam (17-b.) bu misollar payt ma'nosini ifodalagan ravishlardir.

Har shaharda ko'p agar yursam, bir oy yurgum kelur,

Naylayin savdoyi, ahvolim parishon ko'samen (37-b.)

So'rma mazmunini qil naydin qiyos ahvolimi,

Yozu qish har yerda mundog' sohib afg'on ko'samen (38-b.) ushbu ajratib ko'rsatilgan misollardan esa o'rin ravishi yasalganini ko'rishimiz mumkin.

3. U1, bu, ushbu, o'shal ko'rsatish olmoshlariga payt yoki makon bildiruvchi so'zlar qo'shilib, payt yoki o'rin ma'nosidagi qo'shma ravishlar hosil bo'ladi:





Ul zamonikim, yiroq vaslingdin o'ldim, to bu dam,
Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman (80-b.)
Belbog' sotildi, bir necha kun xo'jayin urib,
Ammo bu kun muyushda do'kondor choxfurush. (29-b.)
Ne xush ul kunlarki manzurim eding, e siymbar,
Bor edi zebo qading har dam nazarda jilvagar (129-b.) ushbu misollarda payt ravishi hosil bo'lganligi ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiyning "Tanlangan asarlar"ida ravishlar keng va maqsadga muvofiq qo'llanilganligi kuzatildi. Adib ravishlardan nafaqat harakatning turli belgilarini ifodalashda, balki badiiy tasvirning ta'sirchanligini oshirishda ham samarali foydalangan, va aytish joizki, asarda ravishlar morfologik va sintaktik usullar orqali yasalib, turli semantik ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, eski o'zbek tiliga xos shakllar hamda o'zlashma ravishlarning faol qo'llanilishi Muqimiy ijodining til boyligi va tarixiy qatlamlarini ochib beradi. Ayniqsa, payt, holat va miqdor ma'nolarini bildiruvchi ravishlarning ko'pligi asarning badiiy-uslubiy qimmatini yanada oshirgan. Shu bois, Muqimiy asarlarida ravishlarning o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. 527-b.
2. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. - Тошкент: Мухаррир, 2010. 125-б.
3. Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. - Тошкент: Фан, 1953. 20-б.
4. Муқимий. Танланган асарлар. - Тошкент, 1953, 180-б.